

SUN'iy INTELLEKT VA ADABIY TA'LIM

Gulnora Xayrullayeva Muhammadi qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ona tili va adabiyoti ta'lifi yo'nalishi bo'yicha 4-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola sun'iy intellektning adabiy ta'limdagi imkoniyatlari va qo'llanilish usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Adabiyotlarni tahlil qilish, ta'lim resurslarini yaratish va o'quv jarayonlarini individuallashtirishda sun'iy intellektning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, texnologiyaning ijodkorlikka ta'siri, ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinadi. O'zbek adabiyoti va sun'iy intellekt integratsiyasi orqali adabiy ta'limni rivojlantirish istiqbollari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, adabiy ta'lim, ta'lim texnologiyalari, adabiyot va SI integratsiyasi.

Annotation: This article is devoted to the study of possibilities and methods of application of artificial intelligence in literary education. The effectiveness of artificial intelligence in the analysis of literature, creation of educational resources and individualization of educational processes is considered. Also, the impact of technology on creativity, positive and negative aspects are analyzed. Prospects for the development of literary education through the integration of Uzbek literature and artificial intelligence are also highlighted.

Keywords: Artificial intelligence, literary education, educational technologies, literature and SI integration.

Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt (SI) kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlerga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishslash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin.

Zamonaviy dunyoda texnologik taraqqiyotning jadalligi ta'lim sohasiga yangicha usullarni olib kirib, o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini oshirmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (SI)ning rivojlanishi va uning ta'limdagi imkoniyatlari pedagogik faoliyatni tubdan o'zgartirishga zamin yaratmoqda. Adabiy ta'lim esa insonning intellektual va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rinn tutadigan sohalardan biri sifatida texnologiyalar bilan integratsiyaga kirib bormoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanib, adabiy asarlarni tahlil qilish, matnlarning semantik tarkibini o'rganish, shuningdek, o'quvchilarga moslashtirilgan resurslar yaratish imkoniyatlari kengaymoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari adabiy ta'limni rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. O'zbek adabiyoti va sun'iy intellektning integratsiyasi milliy merosni o'rganishda samarali natijalar beradi. O'zbek adabiyotining mashhur namunalarini raqamli formatga o'tkazish va SI yordamida ularni interaktiv shaklda taqdim etish orqali yosh avlodda adabiyotga qiziqishni oshirish mumkin. SI yordamida "Algomish" dostonini raqamlashtirib, uning qismlarini audiokitob shaklida yaratish o'quvchilarni dostonning audiovizual talqini bilan tanishtiradi. Bu nafaqat bilim olishni osonlashtiradi, balki milliy merosni saqlash va targ'ib qilishga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt

orqali yaratilgan, adabiy asarda ta’rif etilgan qahramonlar rasmlari o‘quvchining ongida asarni real gavdalantirish uchun xizmat qiladi.

Adabiyot darslarida sun’iy intellekt asosida o‘yinlar o‘tkazish orqali yana ham qiziq dars mashg‘uloti olibboriladi. Masalan, adabiy qahramonlar bilan dialog o‘tkazish mumkin. Bu o‘yin yordamida o‘quvchilar asar qahramonlari bilan simulyatsiya qilingan dialogda ishtirok etadilar. Sun’iy intellekt bu dialoglarni o‘qituvchining yordamchisi sifatida avtomatik tarzda yaratadi. O‘quvchilar qahramonlarga savollar berishlari mumkin, bu esa ularning adabiy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. O‘quvchilar qahramonlarga qanday savollar berishni tanlab, ularning javoblarini analiz qilishadi. Bu metod orqali o‘quvchilar asar mazmuni va qahramonlarning xarakterini yanada yaxshiroq tushunadilar. Sun’iy intellekt yordamida o‘yinlar yaratish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki ularni adabiyotga bo‘lgan qiziqishini ham oshirishga yordam beradi. Interaktiv va qiziqarli o‘yinlar yordamida, o‘quvchilar o‘z vaqtlarini samarali o‘tkazib, asarlarning chuqur ma’nosini o‘rganadilar.

Sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi adabiy ta’limda an’anaviy usullarni siqib chiqarishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning bevosita o‘qituvchi bilan ishlash tajribasini kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, SI tomonidan ijodiy jarayonlarning “avtomatlashtirilishi” o‘quvchilarda ijodkorlikni susaytirishi ehtimoli mavjud. Faqat SI orqali tayyorlangan materiallarni iste’mol qiladigan o‘quvchilar o‘z mustaqil fikrlarini shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Sun’iy intellektning ta’limda qo‘llanilishi adabiyotshunoslikni zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar adabiyot va tilshunoslik fanlaridagi ilmiy tadqiqotlarni yangi darajaga olib chiqadi, matnlarni tez va samarali tahlil qilish, ilmiy xulosalar yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, adabiy asarlarning raqamlashtirilishi va milliy adabiyotlarning global miqyosda tanilishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, sun’iy intellektning adabiyotshunoslik va adabiy ta’lim sohasida keng qo‘llanilishi, o‘quvchilarning bilimlarini boyitishga, adabiy asarlarga bo‘lgan qiziqishni oshirishga va ilmiy izlanishlarni yangi yondashuvlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Biroq, bunday texnologiyalarning samarali ishlashi uchun o‘qituvchilarning malakali tayyorgarligi va bu vositalardan to‘g‘ri foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatov N. Sun’iy intellekt vositalarini ta’limni nazorat qilish va baholashda qo‘llash.
2. Muxiddinov M. Sun’iy intellekt va uning imkoniyatlari.
3. Ergashev Sh. Sun’iy intellekt va uning insoniyat hayotida tutgan o‘rni.
4. <https://qalampir.uz/uz/news/kumushdan-tortib-alpomishgacha-sun-iy-intellekt-uzbek-adabiyeti-k-a%D2%BAramonlarining-k-iyefalarini-yaratdi-79829>
5. <https://daryo.uz/2023/03/29/suniy-intellekt-ozbek-adabiyoti-qahramonlari-va-tarixiy-shaxslar-qiyofalarini-yaratdi-foto>